SO‘Z TURKUMLARI GRAMMATIK KATEGORIYALARINING TEGLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Hamroyeva Shahlo Mirdjanovna,
ToshDO‘TAU Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
E-mail: shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
Go‘zal Erkinjonova Baxtiyor qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Kompyuter lingvistikasi fakulteti 2-kurs magistranti
E-mail: uzbekistan-24@mail.ru
Bekmurzayeva Maftuna Baxtiyor qizi,
ToshDO‘TAU Kompyuter lingvistikasi fakulteti 2-kurs magistranti
E-mail: baratovamaftuna09@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbek tilida fe’l so‘z turkumining grammatik kategoriyalari, xususan zamon va shaxs-son kategoriyalarining shakl, mazmun va funksional xususiyatlari hamda ularning teglanishi tahlil qilinadi. Zamon shakllarining tarixiy rivoji, turli tilshunoslar tomonidan berilgan tasniflar, shuningdek, o‘zbek tili grammatik qurilishida ularning formal va semantik ko‘rinishlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, fe’l kategoriyalaridagi omonim shakllarning teglash jarayonidagi murakkabliklari aniqlanib, ularning NLP va korpus lingvistikasidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Fe’l so‘z turkumi grammatik kategoriyalari, zamom, shaxs-son, POS teglash, omonim so‘zlar.

Abstract. This study examines the grammatical categories of the verb in the Uzbek language, with particular emphasis on the categories of tense and person–number, their formal, semantic, and functional properties, as well as issues related to their linguistic tagging. The historical development of tense forms, the classifications proposed by various linguists, and their formal and semantic realizations within the grammatical structure of Uzbek are analyzed in detail. Special attention is paid to the challenges posed by homonymous verb forms in the tagging process, and their relevance to natural language processing (NLP) and corpus linguistics is demonstrated.

Keywords: Grammatical categories of the verb, tense, person–number, POS tagging, homonymous words.

Аннотация. В настоящем исследовании рассматриваются грамматические категории глагола в узбекском языке, с особым акцентом на категории времени и лица–числа, их формальные, семантические и функциональные характеристики, а также проблемы их лингвистической разметки. Подробно анализируются историческое развитие временных форм, классификации, предложенные различными лингвистами, и их формально-семантическая

реализация в грамматическом строе узбекского языка. Особое внимание уделяется трудностям, связанным с омонимией глагольных форм в процессе разметки, а также обосновывается их значимость для задач обработки естественного языка и корпусной лингвистики.

Ключевые слова: Грамматические категории глагола, время, лицо–число, POS-разметка, омонимичные слова.

Kirish

Fe’l so‘z turkumi murakkab grammatik kategoriyaga ega hisoblanadi. Fe’lga xos grammatik kategoriyalarga zamon, shaxs-son, mayl, fe’l nisbatlari va bo‘lishli bo‘lishsizlik kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Harakat bajarilishining vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe’lning uch xil zamoni farqlanadi. O‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon. [3] Jahon tilshunosligida zamon kategoriyasini o‘rganishga ko‘plab olimlar qiziqish bildirganlar. Sababi zamon tushunchasi keng qamrovli va turli fan sohasiga tegishli edi. 1660- yilda A.Arno va K.Lansolarning “Umumiy grammatika” asarida zamon kategoriyalari haqida to‘xtatilib o‘tilgan va fe’lning uch oddiy va uch murakkab shakli mavjudligi ta’kidlangan.[4] M.Lomonosovning “Rus tili grammatikasi”da fe’llarda uchta zamon ya’ni, o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon bor ekanligi aytilgan.[5] O‘zbek tilining grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiq etish XX asrning 40-yillaridan boshlandi. O‘zbek tilshunosligida ham fe’lning grammatik kategoriyalari tadqiq qilingan. Sh. Shoabdurahmonov, A. Xojiyevva boshqalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ham fe’l zamonlarini uchga bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin[6]. A. G‘ulomovning “Fe’l” risolasida o‘zbek tilshunosligida fe’lning zamon kategoriyasi sinxron formal-tavsifiy metod asosida atroflicha tadqiq etiladi[7]. 1962-yilda A.Sulaymonov, A.Hojiyev, J.Jo‘rayevalar hammuallifligida “Fe’l zamonlari” nomli kitob chop etildi[8]. Turli til grammatikasi shu tilning zamon kategoriyasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini o‘tqazdi. Tilshunoslikda ham tilni elektronlashtirish ya’ni lingvistik axborotni

[3] Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Maorif vazirligi, n.d.

[4] Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. – Общ. ред и вступ. ст. Ю.С.Степанова. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 160–164.

[5] Ломоносов М. Российская грамматика. – Санкт-Петербург, 1755. – С.33.

[5] Ломоносов М. Ўша манба. – С. 107.

[6] Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Maorif vazirligi, n.d.

[7] Ғуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 19–38

[8] Сулаймонов А., Ҳожиев А., Жўраева Ж. Феъл замонлари. – Тошкент, 1962. – 168 б.

ISSN 3030-3907

lingvistik ta’minotga aylantirish kuzatildi. Bu esa har bir til o‘z milliy korpusiga ega bo‘lishini tezlashtirdi. Bu orqali zamon kategoriyasini annotatsiyalash, modellash kabi ishlar amalga oshirilishiga sabab bo ‘ldi. O‘zbek tilshunosligida zamon shakllarini teglash yuzasidan ishlar olib borildi. Jumladan, Sh. Xamrayeva “O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi 11 ta kategoriya uchun teglar tizimini, jumladan, zamon kategoriyasin uchun ham ishlab chiqadi.[9] M.Abjalova ham o ‘z ilmiy ishlarida o‘tgan zamon 13 ta hozirgi zamon uchun 6ta, kelasi zamon uchun 9ta shakllarni ko‘rsatadi. [10] anglatuvchi grammatik shakllarning ham ehtimoliy qo‘shilish holatlari ko‘rib chiqilgan. S.Muhamedova harakat fe’llari va ularning valentlik imkoniyatlari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta’min yaratish ustida ish olib borgan[11].

O‘tgan zamon shakllariga **-di, -b (-ib), -gan, edi.** Bu shakllardan –di so‘zlovchi tomonidan bevosita kuzatilgan (keldi), -b(-ib) bilganlik, eshitganlik ma’nosini anglatadi (kulib). –gan affiksi uzoq o‘tmishda bajarilgan ish-xarakat uchun qo‘llaniladi (qilgan). Edi to‘liqsiz fe’li orqali fe’l bo‘lmagan so‘zlarga o‘tgan zamon ma’nosini berish uchun ishlatiladi. (Malikaning kitobi bor edi).

-r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi shakllar o‘tgan zamonning harakatning o ‘tmishda davom etayotganini bildiradi. *O‘sha vaqtda u uyda uxlayotgan edi.*

-ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi shakllarida harakatning bajarilish vaqti ta’kidlanadi. Bu grammatik shakllar nisbatan kam qo‘llaniladi.

Hozirgi zamon harakatning nutq momentidan oldin boshlanganini va hali ham davom etayotganini bildiradi. Hozirgi zamonda harakat nutq momentida bajarilayotgan bo ‘ladi. Hozirgi zamon shakllari: -yap, -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan. Shu bilan birga**,** yurmoq, turmoq, o‘tirmoq, yotmoq fe’llarining ko‘makchi fe’l va holat fe’li sifatida hozirgi zamon ma’nosida qo‘llanilishi kuzatiladi.

Kelasi zamon harakatni nutq momentidan keyin yuz berishini anglatadi. Kelasi zamon shakllari: **-a (-y), -r (-ar), -ydigan (-adigan), -ajak (-yajak), -gay (-kay, -qay).**

-a (-y) shakli kontekstdan, fe’lning lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqib hozirgi yoki kelasi zamon ma’nosini ifodalaydi. -r (-ar) shakli fe’l asosidagi harakat-holatni kelasi zamonda yuz berishini gumon bilan ifodalaydi. -ydigan (-adigan)

[9] Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – Б. 150.

[10] Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) …дисс. – Фарғона, 2019. – Б.125–126.

[11] Мухамедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.

ISSN 3030-3907

asosan kelasi zamon sifatdoshi vazifasini bajarib, kesim vazifasida faol emas. -ajak (-yajak) shakli qat'iy kelasi zamonni anglatadi, biroq bu shakl ham -gay (-kay, -qay) kabi tarixiylik bo'yog'iga ega bo'lib hozirgi o'zbek adabiy tili zamon ifodasida faol emas.

Shaxs-son kategoriyasi harakatning bajaruvchi shaxsga va shaxsning son-miqdoriga munosabati hisoblanadi. Shaxs-son kategoriyasi barcha fe'l shakllarining asosiy grammatik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi va u tilning morfologik tizimida qat'iy paradigmalarga ega. Shaxs-son kategoriyasini ko[12]'plab olimlar o'rgangan.

O.Jesperson shaxs kategoriyasini kommunikatsion jarayonning markaziy bo'g'ini sifatida talqin qiladi. Son kategoriyasi esa grammatik morfologiyaning mantiqiy–tuzilmaviy jihati sifatida sharhlagan. Sapir.E shaxs–son kategoriyasini til tipologiyasi doirasida o'rganadi. Ayrim tillarda shaxs va son qo'shimchalari bir morfemada birlashishi (fusional) yoki alohida bo'lishi (agglutinativ)ni ta'kidlaydi.[13] G.G. Corbett son kategoriyasining dunyo tillaridagi morfologik tipologiyasini yaratgan asosiy olim. Singular, dual, trial kabi noan'anaviy son kategoriyalarini ilmiy ravishda tasniflagan. Shaxs–sonni agreement theory (moslashuv tizimi) orqali tahlil qiladi.[14] O'zbek tilshunosligida ham shaxs-son kategoriyasi chuqur tadqiq etilgan. A.G'ulomov shaxs–son kategoriyasini o'zbek tilidagi shaxs qo'shimchalari (–man, –san, –miz, –sizlar)ning grammatik tizimi sifatida talqin qiladi.Fe'l tarkibidagi shaxs–son ko'rsatkichlarini kesimning markaziy grammatik kategoriyasi sifatida ko'rsatadi.[15] Sh. Rahmatullayev shaxs–son kategoriyasini grammatik kategoriyaning ikki tomonlama (ma'no + forma) tuzilmada ekanligini ta'kidlaydi. Shaxs kategoriyasida subyektning nutqqa munosabati, son kategoriyasida esa grammatik miqdor ifodalanishini ko'rsatadi. U 1-, 2-, 3-shaxs shakllarining funksional-pragmatik talqinini ham beradi.[16]

Fe'l so'z turkumi kategoriyalarining omonimligi fe'l kategoriyalarini teglashda muhim hisoblanadi. Sababi zamonni ifodalovchi bir qancha qo'shimchalar fe'lni boshqa kategoriyasi bilan omonim hisoblanadi va matnda turli vazifada keladi. *–di* qo 'shimchasi zamon shakli va III shaxs –son qo'shimchasi vazifasini ham bajaradi. Masalan: 1. Men dushanba kuni darsga kechikib bordim. 2. Qizcha kitobni baland ovozda o'qiydi. Birinchi misolda -di o'tgan zamon shakli vazifasini, ikkinchi misolda -y zamon shaklidan so'ng qo'shilgan -di shaxs-son qo'shimchasi vazifasini bajargan. Teglash jarayonida bu kabi holatlarni farqlashda,

[12] Jespersen O. "The Philosophy of Grammar" (1924)
[13] Sapir E. "Language: An Introduction to the Study of Speech" (1921)
[14] Corbett G. "Number" (2000) Corbett G. "Agreement" (2006)
[15] G'ulomov A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya"
[16] Rahmatullayev Sh. "O'zbek tili grammatikasi" (Morfologiya bo'limi)

ISSN 3030-3907

zamon qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilgan -di shaxs-son shakli vazifasini bajarishi inobatga olinishi zarur.

-(i)b shakli ham omonim qo ‘shimchadir. Teglash jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratish zarur. Fe’lni ravishga xoslaydi (borib), qo’shma fe’l hosil qiladi (borib keldim), KFSQ hosil qiladi (o‘qib chiqdi), o‘tgan zamon fe’li vazifasida keladi (qilibdi).

-a(y) shaklida ham omonimlik mavjud. Fe’l yasovchi qo ‘shimcha (pasay), fe’lni ravishga xoslaydi (yig’lay-yig ‘lay), hozirgi zamon shakli, kelasi zamon shakli, buyruq istak mayli.

XULOSA

O‘zbek tilida fe’l so‘z turkumi grammatik tizimining eng muhim va murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, uning zamon va shaxs–son kategoriyalari tilning sintaktik, semantik va kommunikativ tuzilishida markaziy o‘rin tutadi. Tadqiqot jarayonida fe’l shakllarining tarixiy rivoji, zamon va shaxs–son kategoriyalarining turli tilshunoslar tomonidan talqini, o‘zbek tilidagi shakllarning tizimli tasnifi hamda ularning kompyuter lingvistikasidagi qo‘llanilish xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Omonim affikslarning grammatik vazifalarni chalkashtirishi teglash jarayonida eng dolzarb muammo ekanligi aniqlandi. Bu esa avtomatik teglash tizimlari uchun yanada mukammal lingvistik qoidalar, morfologik modellar va kontekstual yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Olingan natijalar o‘zbek tili uchun yaratilayotgan milliy korpuslar, morfologik analizatorlar va NLP tizimlarining sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot o‘zbek tili grammatik kategoriyalarining avtomatlashtirilgan talqinini yanada takomillashtirishga asos yaratadi va korpus lingvistikasiga tayangan o‘qitish, tahlil va modellashtirish jarayonlari uchun muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Maorif vazirligi, n.d.
2. Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. – Общ. ред и вступ. ст. Ю.С.Степанова. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 160–164.
3. Ломоносов М. Российская грамматика. – Санкт-Петербург, 1755. – С.33.
4. Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Maorif vazirligi, n.d.
5. Ғуломов А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 19–38
6. Сулаймонов А., Ҳожиев А., Жўраева Ж. Феъл замонлари. – Тошкент, 1962. – 168 б.
7. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – Б. 150.

ISSN 3030-3907

8. Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) …дисс. – Фарғона, 2019. – Б.125–126.
9. Мухамедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.
10. Jespersen O. “The Philosophy of Grammar” (1924)
11. Sapir E. “Language: An Introduction to the Study of Speech” (1921)

ISSN 3030-3907